

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Жевако Г.А., Шубина Л.В. Таксономическая основа характеризующих фразеологизмов в русском и английском языках. // Университетские чтения – 2006. Пятигор. гос. лингвист. ун-т. – Пятигорск, 2006. – С. 38-44.
2. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. М., Издательский центр «Феникс», 1996
3. Маслова В. А. Лингвокультурология. 2-е издание. – М.: Academia, 2004. – 204 с.
4. Маматов А. Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: филол. фан. докт. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 56б.
5. Маматов А. Э. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент.: “Наврўз” нашриёти, 2009. – 260б.
7. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент: Фан, 1970. – Б.56.
8. Саидова Ҳ. А. Ўзбек тилида ҳайвон номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланилиши: Филол. фанлари номзоди... дисс. – Бухоро, 1995. 35-бет
9. Fayzullaevna T. M. Comparative analysis of phraseological units of the concept “love” in the English and Uzbek languages //Berlin studies transnational journal of science and humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.6 Philological sciences.

INGLIZ TILIDAGI ILMIY MATNNING LISONIY XUSUSIYATLARI

Maxmud MUKUMOV

Termiz davlat pedagogika instituti

Xorijiy tillar nazariyasi va metodikasi kafedrasi, katta o'qituvchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada barcha vazifaviy uslublarda uchraydigan o'ziga xosliklar xususida fikrlar o'z aksini topgan. ingliz tili ilmiy uslubiga doir matnlarida uchraydigan lisoniy belgi-xususiyatlar qisman yoritilgan. Jumladan, ilmiy matnlarda uchraydigan leksik, morfologik sintaktik jihatlar haqida fikr yuritiladi.*

Ingliz tilining ilmiy uslubi boshqa uslublardan o'ziga xos leksik tarkibi bilan ajralib turadi va ayni fikrni o'zbek tili borasida ham bildirib o'tish mumkin. Ilmiy uslubning differentsial belgilaridan biri unda abstrakt semantikali so'zlarning juda ko'p ishlatilashi hisoblanadi. Shular jumlasiga ingliz tilidagi tibbiyotga va matematikaga oid matnlarda uchraydigan quyidagi so'zlarni kiritish mumkin: *range, conditions, problems, issue, importance, diagnoses, trend, response, rates, percentage points, acceptance,*

consumption, effects, research, factors, recommendations, behavior, health, direction, tendency, innovation, acknowledgement, direction, factors, importance, axiom, distribution, disperse, ordered, disordered, discrete, continuous, determinant, homomorphism, extrapolation. Leksikaning abstraktlashuvi ilmiy muloqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi. Rus tilshunosi I.R. Galperin ta'kidlab o'tganidek, buning natijasida ilmiy uslubga doir ayrim matnlarda so'zlar o'rniga tegishli mavhum formulalar, shartli va maxsus belgilarning ishlatilishiga olib keladi. Ushbu belgilarning so'zlardan farqi shundaki, ularda qo'shimcha ma'nolar kasb etmaydi [3, B. 428].

Ingliz tilining ilmiy uslubida kitobiy so'zlardan haddan tashqari ko'p ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Mazkur so'zlar hattoki hozirgi badiiy adabiyotda kam uchraydi. Kitobiy so'zlar deyilganda, uzun, murakkab o'zlashgan so'zlar, ba'zida to'liq assimilyatsiya bo'lmagan, aksar hollarda neytral uslubdagi sodda va qisqa sinonimlarga ega bo'lgan so'zlar nazarda tutiladi [2, B. 179]. To'liqsiz grammatik assimilyatsiya deyilganda, biror tildan o'zlashgan so'z o'zining ko'plik shaklini saqlab qolishi nazarda tutiladi. Quyidagi misollarda ingliz tiliga lotincha ilmiy o'zlashgan so'zlarni ko'rib o'tish mumkin: *automaton – automata, phenomenon – phenomena*. Ingliz tilidagi tibbiyotga va matematikaga oid maqolalarning leksik tarkibining katta qismini kitobiy so'zlar tashkil etadi hamda ular ko'pgina tillarda baynalminal so'zlar hisoblanadi: *vaccine, papillomavirus, vitamin, molecular, symptoms, status, hormones, individuals, metabolism, meta-analysis, theorem, axiom, lemma, analysis, synthesis, statistics, combinatorics, geometrical, stereometry, endomorphism, parallelogram, parallelepiped, parabolical, extrapolate, factorial, gradient, homomorphism* va boshqalar.

Ilmiy uslubning yana bir o'ziga xos xususiyati neologizmlarning shakllanishidir. Neologizmlar deyilganda, “yashashning yangi sharoitlari, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, fan va texnika taraqqiyotining natijasida paydo bo'ladigan yangi tushunchalarni ifodalovchi va uning takomillashuvida yuzaga keladigan har qanday yangi leksik va frazeologik birliklar nazarda tutiladi” [3, B. 77]. Shu tarzda, tibbiyotga va matematikaga oid maqolalarning matnlarida uchraydigan quyidagi leksik birliklarni misol sifatida keltirib o'tish mumkin, qolaversa, mazkur leksik birliklarning ayrimlari ingliz tilidagi

lug'atlarda qayd etilmagan: *dose-dependently* – dozaga bog'liq ravishda, *J-shaped relationship* – ma'lum miqdorgacha ruxsat etilgan doza, bundan tepasi xavfli, poset – qisman buyurtma qilingan to'plam, *half-life* – yarim parchalanish davri.

Darhaqiqat, leksik sathda ilmiy matnlarning ko'zga ko'ringan xususiyati ilmiy terminologiyadan keng foydalanishdir. V.N. Komissarov terminlarga “spetsifik ob’ekt va tushunchalarni bildiruvchi so’z va so’z birikmalari hamda ular fan yoki texnikaning ma’lum bir sohasiga doir mutaxassislar tomonidan qo’llaniladi” deb ta’rif beradi [4, B. 110]. Termin belgilari sifatida uning aniqligi, ob’ektivligi, shuningdek monosemantikligi, ya’ni kontekstga qaram bo’lmasligi. Ingliz tilidagi tibbiyotga va matematikaga oid maqolalar terminlarga anchayin “to’yinganligi” ko’zga tashlanadi: *hyperoxia, obesity, overweight, diabetes, esophagus, gallbladder, insulin, hyperinsulinemia, insulin resistance, nasopharyngeal cancer, function, theory, equation, segment, solution, graph, period, series, sequence, set, fraction, divergence, proof, theorem, endomorphism, factorial, matrix*.

Boshqa uslublarda bo’lgani kabi, ilmiy adabiyotlarda ishlatiladigan leksikaning katta qismini umumiste’moldagi neytral so’zlar tashkil etadi.

Ma’lumki, ilmiy uslub kognitiv axborotni yetkazishga xizmat qilganligi sababli, ilmiy matnlarda ishlatiladigan ko’plab lisoniy vositalar ularning ob’ektivligini ta’minlaydi. Ingliz tilidagi tibbiyotga va matematikaga oid maqolalarda hozirgi zamon (Present Simple) shakli yetakchilik qiladi: *Regular physical activity **helps** maintain a healthy body weight by balancing caloric intake with energy expenditure*.

Ilmiy nutq birinchi shaxs formalarining qo’llanishi jihatidan o’ziga xos xususiyatga ega. Bunda, avvalo fe’lning birinchi shaxs birlik formasida qo’llanishi ilmiy nutq uchun xarakterli emasligini aytish kerak bo’ladi [15, B. 88]. Ilmiy matn bayonida ob’ektivlikni ta’minlash maqsadida shaxssiz qurilmalarga murojaat qilinadi. Buning ortidan muallifning birinchi shaxsdagi *men* ko’rinishidagi grammatik ifodasi tushib qoladi. Odatda, ega vazifasida muayyan mavzu doirasidagi ot yoki otning deydik shakli, ya’ni, ikkilamchi nominatsiyalash vositasi (kishilik va ko’rsatish olmoshlari, ravishlar) ishlatiladi. Shu sababli, ilmiy matnlarda shaxssiz qurilmalar, jumladan, infinitivli,

sifatdoshli va gerundial oborotlarga keng murojaat qilinadi. Masalan: ***It is less clear that physical activity reduces the risk of premenopausal breast cancer.***

O'zbek tilida kuzatilgan holat ingliz tilining ilmiy uslubida ham kuzatiladi, ya'ni, kishilik va egalik olmoshlarining 1 va 2-shaxs birlik shakllari imkon qadar ishlatilmaydi. Biroq, kishilik va egalik olmoshlarining 1 va 2-shaxs ko'plik shakllariga keng murojaat qilish holatlari kuzatiladi. Mazkur holat muallifning kamtarligi va ilmiy hamjamiyatga mansubligidan darak beradi: ***Our experience has been that healthy consumers as well as cancer patients seek vitamins and dietary supplements to boost their immune system, improve their quality of life, prevent occurrence or recurrence of cancer, and obtain many other benefits despite the absence of scientific evidence and even potential toxicity in some instances [6].***

Ingliz tilining ilmiy uslubiga doir matnlarida *one* so'zi ishtirokidagi shaxssiz qurilmalar keng ishlatiladi: *At the moment, there is no evidence that NPs, once close to the cell membrane, are taken up individually, and **one may doubt** the technical ability to capture this event [9].*

Ilmiy adabiyotlarda asosiy e'tibor aniq faktlarga qaratilganligi sababli, muallif shaxsi ikkinchi planga tushadi. Natijada ingliz tilidagi ilmiy matnlar bayonida passiv (majhul) qurilmalarga keng murojaat qilinadi: *Nearly 170 observational epidemiological studies of cancer risk and physical activity **have been conducted** at different cancer sites [6];*

Ilmiy adabiyotlardagi uslubni voqelantiruvchi omillarga murakkab material bayonidagi tushunarliklik va logik izchillik hisoblanadi. Binobarin, sintaktik tuzilishi izchil, to'liq bo'lishi kerak. Shunga ko'ra, ingliz tilidagi maqolalarda murakkab sintaktik qurilmalar ishlatiladi. Mazkur murakkab sintaktik qurilmalarni voqelantirish o'zaro turli xil teng va tobe aloqalarga ega bo'lgan yoyiq gaplar tomonidan ta'minlanadi. Masalan: *By measuring the light reflected by the crystal, this technique can detect when and where cells or molecules bind to or are removed from the crystal surface [7].*

Sintaktik sathda ilmiy matnlarda to'liq gaplarning ishlatilishi bilan xarakterlanadi, ya'ni, ellipsis hodisasi uchramaydi. Ilmiy matn bayonida infinitivli va sifatdoshli

oborotlarning ishtirok etganligini ko'rishimiz mumkin: *1. Individuals who are already overweight or obese are advised **to avoid** additional weight gain, and **to lose** weight through **balancing** caloric intake with physical activity, **choosing** foods low in calories, and **avoiding** large portion sizes [6].*

Ilmiy matn mazmun bayonida mantiqiylikni ta'minlashda izchillik va bog'langanlik kabi uslubni shakllantiruvchi omillar o'zaro chambarchas bog'liqdir. Ingliz tilidagi tibbiyotga va matematikaga oid maqolalarda ko'plab shakliy va semantik kogeziya vositalari ishtirok etadi, ayrim hollarda ushbu vositalar haddan tashqari ko'p ishlatilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Mazkur vositalarning katta qismini bog'lovchilar va ravishlar tashkil etadi. Bunda bog'lovchilar va ravishlar gap so'z turkumlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi: *instead of, in consequence of, as a result, in connection with, thanks to, according to, by means of, however, also, again, now, thus, alternatively, on the other hand* va h.k.

A.A. Reformatskiy atributiv birikmani termin hosil qilishning ideal namunasi deb sanaydi [16]. Tibbiyotga oid maqolalarning matnlarida atributiv birikmalar sababli yangi terminlar yuzaga keladi: *cell surface receptors – hujayra yuzasi retseptorlari; tumor necrosis factor – o'simta nekrozi omili; body mass index – tana massasi indeksi.*

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ingliz tilidagi ilmiy vazifaviy uslub bir qator lingvostilistik xususiyatlarni o'zida jamlagan. Ularning aksariyat qismi o'zbek tilining ilmiy uslubiga xosligini yuqorida ko'rib o'tdik. Biroq, ingliz tilidagi ilmiy uslubga doir matnlarda mazmun bayonini imkon qadar ixchamlashtirish va soddalashtirishga intilishlar ko'zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аракин В. Д. Сравнительная типология английского и русского языков. – М.: Физматлит, 2005. – 232 с.
2. Арнольд И. В. Стилистика. Современный английский язык. – М.: Наука, 2002. 384 с.
3. Лебедева О. Г. Стилистико-грамматические особенности английского текста // Филология и лингвистика: проблемы и перспективы: мат. междунар. заоч. науч. конф. – Челябинск: Два комсомольца, 2011. – С. 35–37.

4. Мукумов, М. Х. (2021). Interpretation of the terms world model, worldview, image of the world in cognitive linguistics. *Международный журнал Искусство слова*, 4(2).
5. Разинкина Н.М. Функциональная стилистика английского и русского языков. – М.: Высшая школа, 2004.
6. Makhmud, Mukumov. Using the Moodle Distance Learning System in the Educational Process. *JournalNX*, vol. 6, no. 11, 2020, pp. 156-159.
7. Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка. – В сб.: Конференция по применению структурных и стилистических методов исследования словарного состава языка. М., 1961.
8. Bahromovna, Y. S. (2021). Thematic Division of Clothing Names in English and Uzbek. *European journal of innovation in nonformal education*, 1(2), 61–62. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/41>
9. Yadigarova Sitora Bahramovna. (2023). Analysis of Clothing Component Proverbs in English and Uzbek. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 353–356. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2017>

**EXPRESSING A PROPOSITIONAL MEANING
IN THE CATEGORY OF REALIS/IRREALIS
(in the example of the English and Uzbek languages)**

Normurod RASULOV

*Researcher, senior teacher at
Samarkand State Institute of Foreign Languages*

Abstract. *The article discusses typological application of the concept of “realis/irrealis”, serious approach to functional universals and the definition of grammatical typology. Moreover, the importance of existing the same indicator of negative grammatical form of the realis or irrealis event as the affirmative has been analysed.*

J. Bybee and supporters of his views try to express it against the universality of the irrealis concept related to grammar and typology. According to them, only cognitive-communicative categories that are adequately defined in individual languages or grouped in common in most languages should be considered logically realist. This is a serious approach to functional universals and the definition of grammatical typology. Complex